



TALABALARING AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

Xadiyeva Gulbaxor Djumayevna –

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro shahar bo'linmasi yetakchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning axborot madaniyatini rivojlanirishga ta'sir etuvchi pedagogik, texnologik va ijtimoiy shart-sharoitlar tahlil qilingan. Axborot savodxonligi, axborot xavfsizligi, tahlil qilish qobiliyati va raqamli madaniyat kabi ko'nikmalar baholangan, tadqiqot jarayonida statistik tahlillar o'tkazilgan va shunga muvofiq, axborot madaniyatini shakllantirishning ilmiy modelini ishlab chiqishga oid takliflar keltirilgan bo'lib, mazkur model axborot-kommunikatsiya muhitida talabalarning faol ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: axborot madaniyati, raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi, pedagogik shart-sharoit, SPSS tahlili, tanqidiy fikrlash, axborot-kommunikatsiya muhiti.

Hozirgi kunda jamiyatning barcha sohalarida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yemoqda. Bu, o'z navbatida, yosh avlodni axborotni saralash, tahlil qilish, qayta ishslash va samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lgan axborotli shaxs sifatida tarbiyalash zaruriyatini oshirmoqda.

Axborot madaniyati – bu faqatgina kompyuter va internetdan foydalanish ko'nikmalarining jamlanmasi emas, balki axborotni izlash, tanlash, baholash va axborot xavfsizligiga rioya qilish madaniyati hamdir. Axborot madaniyatini shakllantirish talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va raqamli savodxonlikni rivojlanirishga xizmat qiladi.



Tadqiqotning maqsadi – talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi pedagogik, ijtimoiy va axborot-kommunikatsiya muhitini tashkil etish shart-sharoitlarini aniqlash va ilmiy asoslashb shuningdek, talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishga ta’sir qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar berish.

Inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion taraqqiyotning asosiy drayveriga aylanmoqda. Bu esa, oliy ta’lim muassassalarida ta’lim oluvchilarining axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, qayta ishlash va axborot xavfsizligini ta’minlash borasidagi kompetensiyalarini shakllantirishni talab etmoqda. Axborot madaniyati – bu axborot bilan ma’naviy, axloqiy va funksional munosabatni qamrab olgan keng qamrovli madaniyat shaklidir [1].

Oliy ta’limda axborot madaniyatini shakllantirish, birinchi navbatda, axborot-kommunikatsiya muhitini yaratish, raqamli platformalardan maqsadli foydalanish va ta’lim jarayonini interaktiv metodlar bilan boyitish orqali amalga oshiriladi. Shu asosda, mazkur maqolada talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishdagi sharoitlar kompleks tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni hal qilish ko‘zda tutiladi:

1. Axborot madaniyati tushunchasiga oid nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;

2. Axborot madaniyati darajasini aniqlash uchun mezonlar ishlab chiqish;

3. Pedagogik shart-sharoitlarni eksperiment orqali sinovdan o’tkazish;


4. Axborot madaniyatini rivojlantirishning samarali modelini shakllantirish.

Tadqiqotda kompleks yondashuv asosida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

✓ *nazariy tahlil* – ilmiy manbalar, davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganildi [2];



- ✓ *so‘rovnama va intervyyu* – talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida axborot madaniyati darajasini aniqlash uchun so‘rov o‘tkazildi;
- ✓ *diagnostik testlar* – axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalari baholandi;
- ✓ *pedagogik eksperiment* – muayyan oliv ta’lim muassasalarida axborot muhitini yaratish va undan foydalanish sharoitida tadqiqot amalga oshirildi;
- ✓ *statistik tahlil* – natijalar SPSS dasturi orqali tahlil qilindi.



Ya’ni, tadqiqot natijalari SPSS Statistics 25.0 dasturi yordamida tahlil qilindi. So‘rovnama va diagnostik testlardan olingan ma’lumotlar deskriptiv statistikalar (o‘rtacha qiymat, standart og‘ish, foizlar) va Xi-kvadrat (χ^2) hamda korrelyatsion tahlil usullari orqali qayta ishlandi. Bu orqali talabalarning axborot madaniyati darajasi bilan ularning ta’lim muhiti, AKTdan foydalanish qobiliyati va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlandi. Tadqiqot natijalari talabalarning axborot madaniyati darajasi turlicha ekanini ko‘rsatdi. So‘rovnama natijalariga ko‘ra, talabalarning 34% axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligi ma’lum bo‘ldi. 62% talabalar axborotni tanlashda mustahkam mezonlarga ega emas, balki internetdagi birinchi manbaga ishonadi.



Ushbu ma'lumotlarni quyidagi jadval ko'rinishida keltirib o'tamiz:

T/r	Ko'nikmalar	Talabalar ulushi (%)
1.	Axborot xavfsizligi	34%
2.	Axborotni tahlil qilish	45%
3.	Raqamli savodxonlik	62%
4.	Tanqidiy fikrlash	28%

Eksperiment natijalari talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishda quyidagi shart-sharoitlar muhim ekanini ko'rsatdi:

1. Axborot-kommunikatsiya muhitini yaratish.
2. Axborotni tahlil qilish, qayta ishlash va taqdim etishga doir amaliyotlar.
3. Axborot xavfsizligiga oid savodxonlik mashg'ulotlari.
4. Ta'lim jarayonida multimedia, raqamli platformalar va elektron kutubxonalardan foydalanish.

Tadqiqot davomida maxsus "Axborot madaniyatini shakllantirish modeli" ishlab chiqildi, unda axborotga munosabatni shakllantirish bosqichlari, pedagogik texnologiyalar va baholash mezonlari belgilandi [3].

Olingan natijalar J.Yunusov, I.Qurbanov, Ye.Sergeyev, Z.To'xtayeva kabi tadqiqotchilarining ishlari bilan solishtirilganda, ularda axborot madaniyati asosan axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq tushuncha sifatida talqin qilingani aniqlandi [4, 5]. Ammo ushbu tadqiqotda axborot madaniyati kengroq va chuqurroq yondashuv bilan olib borilgan – axborotni saralash, tahlil qilish, axloqiy va huquqiy munosabatlarni ham qamrab olgan.

Axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni – bu zamonaviy ta'lim mazmunida axborot resurslaridan ongli, mas'uliyatli va madaniyatli foydalanishni ta'minlashga qaratilgan o'quv-tarbiya tizimidir. Bu jarayon nafaqat axborot texnologiyalari sohasi bilan, balki ta'limning barcha sohalaridagi fanlarning mazmunan uzviyiligi va o'zaro bog'liqligi bilan ham chambarchas bog'liqdir.



Bu jihatdan Z.Sh. To‘xtayevaning “Oliy ta’limda ixtisoslik va mutaxassislik fanlar uzbekligi va integratsiyasini ta’minalash muammolari” mavzusidagi ilmiy ishi (2018) muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [7]. Muallif ta’lim mazmunida fanlar o‘rtasidagi integratsiya orqali bilimlar tizimini shakllantirish, mutaxassislik sohalari bilan axborot faoliyatini uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, axborot madaniyatini rivojlantirish ham ayni shunday integrativ yondashuvga asoslanadi: axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik, tahlil ko‘nikmalari va media savodxonlik kabi yo‘nalishlar — barchasi ta’limdagi fanlararo aloqalarni talab qiladi. Axborot madaniyatini shakllantirish shart-sharoitlari ana shu fanlar, texnologiya va tarbiya usullarining uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Z.Sh. To‘xtayeva maqolasida nazariy ravishda asoslangan integratsiya g‘oyasi ushbu maqolada amaliy misollar va pedagogik eksperimentlar orqali o‘z tasdig‘ini topgan [8]. Demak, talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun, avvalo ta’lim jarayonining fanlararo uyg‘unligini ta’minalash zarur.

Shuningdek, axborot muhitini yaratishda universitetlarda raqamli infratuzilmaning roli muhim ekanligi, internetga cheksiz va sifatli kirish imkonii, elektron resurslar bilan ishlash tajribasi talabalar axborot madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Tahlillar natijalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni taqdim etamiz:

1. Axborot madaniyati – bu talabaning raqamli savodxonligi, axborotni tahlil qilish, xavfsiz foydalanish va axborot etikasiga asoslangan ko‘nikmalarining tizimidir.
2. Axborot madaniyatini shakllantirishda pedagogik muhit, ta’lim texnologiyalari va elektron resurslar hal qiluvchi ahamiyatga ega.
3. Axborot madaniyatini baholash uchun “axborotni izlash qobiliyati”, “aqlli saralash”, “axborot xavfsizligi bo‘yicha bilim” kabi mezonlar tavsiya etiladi.



4. Axborot madaniyatini rivojlantirishning modellari va metodlari ta’lim jarayoniga integratsiya qilinmog‘i lozim.

5. Keyingi tadqiqotlarda boshqa fan sohalarida axborot madaniyatining rivojlanishi o‘rganilishi mumkin.

So‘rovnama natijalari talabalarning turli ko‘nikmalar bo‘yicha bilim darajalarida farq **pedagogik shart-sharoitlar tahlilida** quyidagi omillar muhim deb topildi:

- axborot-kommunikatsiya muhitining mavjudligi;
- elektron resurslarga kirish imkonii;
- axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar;
- talabalarda axborotni tahlil qilish bo‘yicha amaliyotlar.

**Talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirishning
shart-sharoitlarini yaratishda axborot madaniyati modelining
shakllanishi muhim ahamiyatga ega.**

Modelda **axborot savodxonligi, axborot bilan ishlash madaniyati, axborot etikasi va sifrovaya gigiyena** kabi asosiy komponentlar nazarda tutilgan. U har bir oliy ta’lim muassasasidagi infratuzilma va ta’lim mazmuniga moslashtiriladi.

Olingan natijalar nafaqat milliy, balki xalqaro tadqiqotlar bilan ham uyg‘unlikda ekanini ko‘rsatadi. Jumladan, UNESCO ta’lim standartlariga ko‘ra, axborot madaniyati shaxsiy va jamoaviy faoliyatda axborotni foydalanishning axloqiy va huquqiy me’yorlarini qamrab oladi [5].

Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishda talabalarning faol ishtirokini ta’minalash, ularni axborot muhitida ijodiy ishlashga undash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, media savodxonlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi [3, 4].

Xulosa qilish mumkinki, axborot madaniyati talabalarda raqamli savodxonlik, axborotni tahlil qilish, xavfsiz foydalanish va axborot etikasiga



asoslangan ko‘nikmalarni qamrab oladi. Axborot muhiti, multimedia resurslar, elektron kutubxonalar va raqamli platformalardan samarali foydalanish madaniyatning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, axborot xavfsizligi, kritik tahlil va raqamli gigieynaga oid amaliy mashg‘ulotlar o‘quv dasturlariga kiritilishi zarur.

Shuningdek, axborot madaniyatini shakllantirish uchun universal pedagogik modellar va baholash tizimlari ishlab chiqilishi lozim hamda bu sohada tadqiqotlar yanada chuqurlashtirilishi va boshqa fan sohalari bilan integratsiya qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva G. Axborot madaniyati va uni shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Sharipov H. Axborot texnologiyalari va ta’lim tizimida innovatsiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Nazarov A. Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish metodikasi. // Pedagogika jurnali, 2022. – № 4. – В. 21–25.
4. Тухтаева, З. Ш. (2018). Олий таълимда ихтисослик ва мутахассислик фанлар узвийлиги ва интегратсиясини таъминлаш муаммолари. Касб-хунар таълим, 4, 21.
5. Тухтаева, З. Ш., & Искандарова, Г. Б. (2014). Обеспечение межпредметной преемственности при обучении специальным предметам. Молодой ученый, (8), 882-884.
6. Yusupov J. Developing students' media and information literacy in digital age. – Int. Journal of Innovation in Education, 2021. – Vol. 8(2). – pp. 113–126.
7. Sh, T. Z. (2020). Integration of special subjects in higher education. International Engineering Journal For Research & Development, 5(3), 125-131.



8. To‘xtayeva, Z., Usmonova, N., & Umedova, M. M. (2023). Bo ‘lajak muhandislarning loyihalash ko ‘nikmalariga qo ‘yiladigan kasbiy talablar. Talqin va tadqiqotlar, 1, 27.
9. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris, 2018.